



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-iyul*



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 74 228-30-57***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosati boshqaruvida to'g'ri qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 652 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 552 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 12 760,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 109,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 027,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 125,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 733,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 073,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,4 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Andijon Viloyati	12 760,9	109,0
Andijon sh.	3 789,3	110,5
Xonobod sh.	93,9	110,2
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	824,3	107,8
Andijon	1 044,7	107,7
Baliqchi	1 079,6	108,4
Bo'ston	191,6	107,1
Buloqboshi	286,8	107,7
Jalaquduq	296,5	107,2
Izboskan	401,5	113,2
Ulug'nor	210,7	107,4
Qo'rg'ontepa	503,0	111,2
Asaka	1 151,2	108,6
Marhamat	428,0	107,1
Shahrixon	1 260,9	108,0
Paxtaobod	496,1	107,6
Xo'jaobod	702,7	108,7


2024- yilning yanvar-iyul oylarida 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (10,5 %), Xonobod shahri (10,2 %), Izboskan (113,2 %), Asaka (8,6 %), Qo'rg'ontepa (11,2 %), Xo'jaobod (8,7 %), tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dynamikasi (yanvar-iyul)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

2023-2024- yillarda chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-iyul oylarida o'sish sur'ati **109,0** % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 29,7 % bilan 3 789,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri 0,7 % bilan 93,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar-iyul oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 11 733,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 7,8 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,0 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 25,0 % ga o'sdi va 1 027,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,0 % ulushiga to'g'ri keldi.





CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (99,0 %), Qo'rg'ontepa (97,9 %), Shahrixon (98,4 %), Xo'jaobod (98,1 %), va Marhamat (97,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 8,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (17,8 %), Izboskan (10,8 %), Jalaquduq (8,4 %) tumanlarida kuzatildi.



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Andijon sh.

7 832,3

Marhamat

2 287,5

Xonobod sh.

2 041,1

Shahrixon

3 869,1

Oltinko'l

4 282,1

Paxtaobod

2 367,1

Andijon

3 632,4

Xo'jaobod

5 827,0

Baliqchi

4 981,9

Bo'ston

2 449,6

Buloqbohi

1 866,1

Jalaquduq

1 485,4

Izboskan

1 566,6

Ulug'nor

3 291,1

Qo'rg'ontepa

2 174,7

Asaka

3 229,2

2024- yilning yanvar-iyul oylarida holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 742,9 ming. so'm (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan (106,7 %) ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (7 832,3 ming so'm), Xo'jaobod (5 827,0 ming so'm) va Baliqchi (4 981,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyul), mlrd. so'mda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	2 073,5	114,4
Andijon sh.	486,6	118,8
Xonobod sh.	9,0	305,3
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	33,9	104,2
Andijon	48,5	88,5
Baliqchi	108,0	100,3
Bo'ston	19,5	101,5
Buloqboshi	73,9	115,8
Jalaquduq	59,9	103,0
Izboskan	29,7	133,9
Ulug'nor	63,7	101,6
Qo'rg'ontepa	150,2	159,6
Asaka	257,4	126,7
Marhamat	107,1	118,3
Shahrixon	391,8	112,9
Paxtaobod	149,9	94,6
Xo'jaobod	84,5	99,0


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyul)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-iyul)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 073,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 114,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1 045,3 mlrd. so'mni (116,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 004,2 mlrd. so'mni tashkil etdi (130,8 %).

2024- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 045,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (347,9 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 347,9 mlrd. so'm  33,3 %	Non va non mahsulotlari 232,3 mlrd. so'm  22,2 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 98,4 mlrd. so'm  9,4 %
Tovuq go'shti 27,3 mlrd. so'm  2,6 %	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 45,3 mlrd. so'm  4,3 %	Tuxum 31,4 mlrd. so'm  3,0 %
Ziravorlar 30,8 mlrd. so'm  2,9 %	Sut va sut mahsulotlari 20,4 mlrd. so'm  2,0 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak 5,5 mlrd. so'm  0,5 %
Tuzlamalar 18,8 mlrd. so'm  1,8 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 13,2 mlrd. so'm  1,3 %	Nooziq-ovqat tovarlar 174,2 mlrd. so'm 16,7 %

2024- yilning yanvar-iyul oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 1 004,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 848,0 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar – 142,7 mlrd. so'mni, otlar – 8,2 mlrd. so'mni, quyon va parrandalar – 5,3 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 526,0 mlrd. so'm  52,4 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 119,4 mlrd. so'm  11,9 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 202,5 mlrd. so'm  20,2 %
Qo'ylar 139,8 mlrd. so'm  13,9 %	Otlar 8,2 mlrd. so'm  0,8 %	Echkilar 2,9 mlrd. so'm  0,3 %
Kurka, o'rdak, g'oz 3,7 mlrd. so'm  0,4 %	Tovuqlar 1,1 mlrd. so'm  0,1 %	Quyonlar 0,3 mlrd. so'm  0,03 %
Qushlar 0,2 mlrd. so'm  0,02%		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 251 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 249 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	240,6	107,9
Andijon sh.	117,5	108,0
Xonobod sh.	2,3	108,9
tumanlar :		
Oltinko'l	11,4	105,5
Andijon	18,0	105,7
Baliqchi	3,1	106,2
Bo'ston	1,3	103,6
Buloqboshi	2,4	107,4
Jalaquduq	3,2	107,2
Izboskan	7,5	106,1
Ulug'nor	3,6	106,1
Qo'rg'ontepa	10,9	107,1
Asaka	10,4	107,9
Marhamat	5,6	103,7
Shahrixon	30,4	112,5
Paxtaobod	8,2	107,0
Xo'jaobod	5,0	108,2

2024- yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 240,6 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 89,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Andijon viloyati	3 089,8	100,0
Andijon sh.	2 209,3	71,5
Xonobod sh.	0,45	0,01
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	281,9	9,1
Andijon	80,6	2,6
Baliqchi	13,1	0,4
Bo'ston	0,50	0,02
Buloqboshi	0,5	0,02
Jalaquduq	1,3	0,0
Izboskan	6,8	0,2
Ulug'nor	0,51	0,02
Qo'rg'ontepa	3,7	0,1
Asaka	273,2	8,8
Marhamat	3,3	0,1
Shahrixon	9,6	0,3
Paxtaobod	0,7	0,0
Xo'jaobod	204,3	6,6


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Andijon shahri (2 209,3 mlrd. so'm), Oltinko'l (281,9 mlrd. so'm), Asaka (273,2 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (204,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-iyul oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 3 089,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,1 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 518,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 41,6 %ga kuyildi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 1 571,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 117,3 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 4 583,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

**Mikrofirma va kichik
korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 4 299,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,8 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 679 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 648 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Xonobod shahri (34,3 m.), Marhamat (3,4 m.) va Ulug'nor (143,1 m.), tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	3 781,1	108,5
Andijon sh.	1 797,2	111,2
Xonobod sh.	43,8	110,4
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	125,8	88,7
Andijon	294,4	89,7
Baliqchi	317,2	114,8
Bo'ston	25,1	92,0
Buloqboshi	62,9	111,2
Jalaquduq	32,6	94,0
Izboskan	161,1	111,8
Ulug'nor	62,6	118,6
Qo'rg'ontepa	111,2	118,8
Asaka	122,2	110,9
Marhamat	41,0	114,4
Shahrixon	424,3	111,0
Paxtaobod	62,8	107,7
Xo'jaobod	96,9	110,3